



AFG'ON INQIROZINI HAL QILISHDA QATAR OMILI

Davranov Kamron Kahramonovich

Mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17473091>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Published: 29th October 2025

KEYWORDS

Tolibon, xavfsizlik, Doha
kelishuvlari, Haqqoniy
tarmog'i, Bagram harbiy
baza, terrorizm, Al-Qoida.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Afg'onistondagi siyosiy beqarorlikning Markaziy va Janubiy Osiyo xavfsizligiga ta'siri, shuningdek, bu jarayonda Qatar davlatining vositachilik roli yoritilgan. Unda "Tolibon" harakatining shakllanishi, uning diniy va etnik ildizlari, shuningdek, tashqi kuchlar ta'siri tahlil qilingan. Asosiy e'tibor Qatarning 2013-yildan boshlab "Tolibon" bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yishi, 2020-yilda Dohada AQSh-Tolibon kelishuvini tashkil etishi va 2021-yilda evakuatsiya jarayonlarida faol ishtirok etishiga qaratilgan. Qatar diplomatiyasining betaraflik, ishonchlilik va muloqotga tayyorlik kabi jihatlari uning xalqaro obro'sini oshirganini ko'rsatadi. Shuningdek, Qatar vositachilikdan mintaqaviy ta'sir markaziga aylangani, Afg'on muammosini hal etishda esa mintaqaviy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishi Qatar misolida yoritiladi.

KIRISH

Afg'onistondagi beqarorlik nafaqat mintaqaviy, balki global siyosatning ham eng og'riqli nuqtalaridan biridir. Ushbu mamlakatdagi davomli qurolli to'qnashuvlar, etnik, diniy va mafkuraviy ziddiyatlar, tashqi kuchlarning manfaatlar to'qnashuvi natijasida yuzaga kelgan murakkab geosiyosiy sharoit bugungi xalqaro tizimdagi beqarorlikni kuchaytiruvchi omilga aylangan. Ayniqsa, "Tolibon" harakatining qayta hokimiyat tepasiga kelishi ortidan Afg'oniston muammosi yana Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo va Yevroosiy xavfsizlik arxitekturasini uchun sinov maydoniga aylandi.

Bugungi kunda Afg'onistonda tinchlik o'rnatish yo'lidagi jarayonlar ko'p qirrali va murakkab tus olgan. Bir tomondan, turli muzokara formatlari - Doha, Moskva, Toshkent va Istanbul orqali tinchlikka erishish uchun diplomatik sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Boshqa tomondan esa, ichki siyosiy parokandalik, ijtimoiy-iqtisodiy tanglik va terrorchilik guruhlarining faolligi bu jarayonni murakkablashtirmoqda. Takidlash joziki, bugungi Afg'oniston muammosini hal etish faqat bitta davlatning yoki tashkilotning kuchi bilan emas, balki mintaqaviy va global miqyosda uyg'un hamkorlikni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Afg'oniston xavfsizligi - bu O'zbekiston xavfsizligi, butun Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi barqarorligi va taraqqiyotining garovidir" degan fikri bejiz emas¹. Mazkur pozitsiya O'zbekiston tashqi siyosatining markazida turgan asosiy tamoyil - mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan amaliy tashabbuslarni belgilab beradi. Toshkentning 2018-yil mart oyida o'tkazilgan "Afg'onistonda tinchlik jarayonini qo'llab-quvvatlash" xalqaro konferensiyasi, Termizdagi "Tinchlik eshigi" gumanitar platformasi, Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni tiklash tashabbuslari bunga yorqin misoldir.

Afg'onistondagi mojaroni hal etish masalasi bugungi kunda ko'p tomonlama muzokaralar, vositachilik tashabbuslari, xususan Qatar, Rossiya, Xitoy, Eron va Markaziy Osiyo davlatlari ishtirokidagi diplomatik jarayonlar orqali kechmoqda. Bu esa xalqaro tizimda yangi geosiyosiy tendensiyalar - ko'p qutbli hamkorlik, mintaqaviy xavfsizlikni kollektiv ta'minlash va iqtisodiy integratsiya mexanizmlarining kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda Afg'oniston taqdiri va uning siyosiy hayotida **"Tolibon"** omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bu harakat XX asr oxirida paydo bo'lib, 1990-yillarning o'rtalarida Afg'oniston siyosiy manzarasiga keskin kirib keldi va o'sha davrdan boshlab mamlakatdagi siyosiy, harbiy hamda mafkuraviy jarayonlarga chuqur ta'sir ko'rsatib kelmoqda. "Tolibon" harakati ba'zan yopiq, ba'zan oshkora xususiyat kasb etgan murakkab ichki va tashqi omillarning kombinatsiyasi natijasida vujudga keldi. Mazkur harakat ichki omillar nuqtayi nazaridan nafaqat deobandiylik va vahobbiylik ta'limotlarini o'zlashtirgan radikal islomizm qarashlariga ega diniy harakat sifatida, balki o'zini pushtunlarni birlashtiruvchi etnik harakat sifatida ham namoyon qildi. "Tolibon" harakati o'zining ilk bosqichida diniy-madrasaviy qatlamdan chiqqan talabalar harakati sifatida shakllanib, keyinchalik mintaqaviy va global siyosatning markaziy subyektiga aylandi².

Tarixiy manbalarga ko'ra, "Tolibon" 1994-yilda **Qandahor** viloyatida Muhammad Umar (Mulla Umar) boshchiligida tashkil topgan. Ular dastlab o'z hududida tartib o'rnatish, korrupsiya va fuqarolar o'rtasidagi nizolarga barham berishni maqsad qilganini e'lon qilgan bo'lsa-da, qisqa fursatda butun mamlakatni egallashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. 1996-yilda "Tolibon" Kobulni qo'lga kiritib, "Afg'oniston Islom Amirligi"ni e'lon qildi. Shu tariqa, ular nafaqat ichki siyosatni, balki Afg'onistonning tashqi aloqalarini ham tubdan o'zgartirdi. Professor Sh.Akmalov fikriga ko'ra: Bugungi "Tolibon" omili faqatgina Afg'onistonning yakka o'zi bilan cheklanmaydi, uning paydo bo'lish, shakllanish va rivojlanish evolyutsiyasidan ma'lumki, u nafaqat Afg'onistonga yaqin va uzoqroq qo'shnilariga, balki arab-u ajam hamda okean orti o'lkalariga qadar allaqachon jiddiy e'tiborda turadigan omilga aylanib ulgurgan³.

Afg'oniston zamini tarixan turli xil dinlar, mazhablar, qabilalar va elatlar yashagan makon bo'lib kelgan. Ular gohida tinch-totuv umrguzaronlik qilgan bo'lsa, gohida bir-biri bilan

¹ Mirziyoyev. Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O'zbekiston, 2018. –B.363-369

² Bo'ronov S. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston Geosiyosati. 2021. T.: "EFFECT-D" b-150-165

³ Akmalov Sh. "Tolibon" harakatining Afg'onistondagi siyosiy jarayonlardagi roli. // Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixiy jarayonlari va ularni o'rganishning dolzarb muammolari. Vazirlik miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami (Toshkent, 22.05.2017 y. №10). –T.: TDSHI, 2017. b-93.

kelishmay turli nizolar va urushlarni boshdan kechirgan. Afsuski, shu paytgacha Afg'onistondagi qurolli nizo va urushlar tinchlik davriga nisbatan uzoqroq va ko'proq davom etgan⁴.

So'nggi o'n yil ichida Qatar davlati Afg'onistonga daxldor mintaqaviy aktorlar orasida muhim o'yinchilardan biriga aylandi. Ta'kidlash lozimki, Qatar Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari kabi arab davlatlaridan farqli ravishda Afg'onistonni 1996-2001-yillarda boshqargan "Tolibon" hukumatini rasman tan olmagan. "New York Times" nashri ma'lumotlariga ko'ra, Saudiya Arabistoni va BAA o'z vaqtida "Tolibon" harakatining siyosiy idorasini o'z hududida ochish uchun Qatar bilan raqobat qilishgan⁵. Ammo, 2013-yilda Dohada ochilgan "Tolibon" harakatining siyosiy mahkamasi qisqa vaqt ichida Qatarining afg'on inqirozini "hal etish"daagi ta'sirini belgilab berdi.

Qatarining AQSh-Tolibon muzokaralaridagi ishtiroki Doha shahriga AQSh tomonidan muzokaralarni tashkil etish va "Tolibon" uchun Afg'onistondan tashqarida siyosiy idora ochish taklifi bilan murojaat qilingandan so'ng boshlandi⁶. Bu dastlabki murojaat 2007-yilda, NATOning Afg'onistondagi isyonchilarga qarshi kurashining eng og'ir davrida amalga oshirilgan edi. Biroq, muzokaralarda aniq natijaga erishish uchun uzoq vaqt kerak bo'ldi. Guantanamo'dagi harbiy qamoqda saqlanayotgan "Tolibon" a'zolarini ozod qilish masalasi bo'yicha kelishmovchiliklar muzokaralarni uzoq davom ettirdi. Bu holat AQShning yuqori lavozimli "Tolibon" a'zolarini ozod etishga rozi emasligini ko'rsatdi. Shunga qaramay, 2013-yilda "Tolibon" Qatarining ko'magida Dohada siyosiy idora ochdi. Bu idora "Tolibon" bilan xorijiy davlatlar o'rtasidagi yashirin muloqotlar uchun maydon vazifasini bajardi⁷.

Qatar har ikki tomon uchun maqbul vositachi sifatida tanlanishiga bir necha omillar sabab bo'lgan. "Tolibon" uchun Qatar maqbul edi, chunki Doha NATOning Afg'onistondagi qarshi isyon amaliyotlarida ishtirok etmagan va ular qo'ygan dastlabki shartlarni qabul qilishga tayyor edi. Shu sababli "Tolibon" Qatarni boshqa mintaqaviy vositachilarga nisbatan afzal deb bildi. Masalan, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) ham AQSh-Tolibon muzokaralariga, shuningdek, keyingi Afg'oniston ichidagi muzokaralarga vositachi sifatida qo'shilishga uringan edi. Ammo "Tolibon" BAAning rolini qat'iy rad etdi, chunki Amirlik qo'shinlari 2003-yildan boshlab NATO hamkorligi doirasida Afg'onistonda xizmat qilgan edi⁸. Bundan tashqari, 2017-yilda "Tolibon" Qandahorda amalga oshirgan avtoportlash natijasida besh nafar BAA diplomati, jumladan elchi ham halok bo'lgan. Shu bois "Tolibon" Qatarni Amirliklarga qaraganda xolisroq va betarafroq vositachi deb bildi.

⁴ Акимбеков С.М. История Афганистана. ИМЭП при Фонде Первого Президента. – Астана., 2015. -874 с.

⁵ Persian Gulf Rivals Competed to Host Taliban, Leaked Emails Show // New York Times, July 31, 2017. <https://www.nytimes.com/2017/07/31/world/middleeast/uae-qatar-taliban-emails.html>

⁶ Poornima, B. (2022). 'Reluctant or Pragmatic? The GCC's policy towards Taliban-led Afghanistan.' Journal of Asian Security 9 (3): 531-545.

⁷ Milton, S., Elkahlout, G., & Tariq, S. (2023). Qatar's evolving role in conflict mediation. Mediterranean Politics, 1-25.

⁸ Ardemagni, E. (2021). 'Still a mediator: Qatar's Afghan shot on the international stage.' ISPI, [online] 3 September. Available at: <https://www.ispionline.it/en/publication/still-mediator-qatars-afghan-shot-international-stage-31542>

Shuningdek, Qatarning moliyaviy qudrati ham Tolibon uchun jozibador omil bo'ldi. Doha bilan iliql munosabatlar o'rnatish Afg'onistonga AQSh tomonidan moliya aktivlari muzlatilishi oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun yordam va investitsiya olish imkonini yaratgan. 2019-yil D.Trump prezidentligining birinchi davrida Qatar AQSh askari o'ldirilganidan so'ng Tramp muzokaralarni to'xtatib qo'ygan bir paytda amerikalik garovdagi fuqaro evaziga uch nafar yuqori lavozimli "Tolibon" a'zosining ozod etilishi bo'yicha kelishuvni tashkil etishga ko'maklashgan. Qatar vositachiligidagi kelishuv natijasida Haqqoniy tarmog'iga mansub uch kishi - Anas Haqqoniy, Haji Moli Xon va Hofiz Rashid **Bagram** harbiy bazasidagi (AQSh havo bazasi hududida joylashgan, ammo Afg'oniston hukumati nazoratidagi) qamoxonadan ozod etildi. Ularning evaziga amerikalik Kevin King va avstraliyalik Timoti Uiks ozod qilindi⁹. Bu jarayonda Qatarning eng yuqori darajadagi rasmiylari - Bosh vazir va tashqi ishlar vaziri Shayx Muhammad bin Abdurrahmon Al-Soniy hamda maxsus elchi Mutlaq Al-Qahtani bevosita ishtirok etgan.

Qatar AQSh va "Tolibon" o'rtasidagi bir qator muhim kelishmovchiliklarni hal etishda asosiy vositachi bo'ldi. Bu kelishmovchiliklar "Tolibon"ning AQSh qo'shinlari chiqib ketganidan keyingi terrorizmga qarshi majburiyatlari hamda AQSh qo'shinlarini bosqichma-bosqich olib chiqish masalalariga taalluqli edi. Natijada, 2020-yil 29-fevralda Dohada imzolangan kelishuvda bu masalalar aniq belgilandi. Hujjat AQSh qo'shinlarini xavfsiz chiqarish uchun "yo'l xaritasi"ni yaratdi va "Tolibon"ning "al-Qoida" hamda boshqa xalqaro terroristik tashkilotlar bilan aloqalarni uzish majburiyatini mustahkamladi. Shuningdek, u "Tolibon"ni Afg'oniston ichki muzokaralariga kirishishga majbur qildi.

2021-yil 15-avgustda "Tolibon"ning Afg'onistonda hokimiyatni egallashi ortidan Qatar o'zining diplomatik vositachilik rolini yangi bosqichga ko'tardi. Endi Doha faqat muzokaralar platformasi emas, balki bevosita amaliy yordam ko'rsatuvchi faol ishtirokchiga aylandi. Bu o'zgarish Qatar tashqi siyosatining pragmatik va insonparvarlik yo'nalishiga xos namuna bo'ldi. Afg'onistondagi siyosiy inqiroz va xavfsizlik bo'shlig'i sharoitida Qatar o'n minglab insonlarning evakuatsiyasida hal qiluvchi rol o'ynadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bir oy ichida 60 mingdan ortiq afg'on fuqarosi va minglab xorijiy fuqarolar Dohaga xavfsiz olib chiqilgan¹⁰. Bu jarayon Kobuldagi notinch siyosiy va harbiy vaziyat fonida amalga oshirilgan. Doha o'zining vositachilik rolini kengaytirib, xalqaro hamkorlikni mustahkamladi. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Niderlandiyaning diplomatik missiyalari endilikda Dohadan faoliyat yuritishni boshladi. Bu Qatarni Afg'oniston bo'yicha global diplomatik markaz sifatida maqomini oshirdi.

2024-yilda Qatar vositachilikni davlat siyosatining konstitutsion tamoyiliga aylantirish orqali bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. Aniqrog'i, Qatar konstitutsiyasining 7-moddasiga o'zgartirish kiritilib, unda vositachilik mamlakat tashqi siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida qayd etildi. Ushbu tuzatish Qatarning vositachilik rolini

⁹ Faiez, R. (2019). 3 Taliban released in effort to free American and Australian. <https://www.pbs.org/newshour/world/3-taliban-released-in-effort-to-free-american-and-australian>

¹⁰ Pamuk, H. and Landay, J. (2021). Blinken says Qatar to act as U.S. diplomatic representative in Afghanistan. Retrieved from. <https://www.reuters.com/world/exclusive-qatar-act-us-diplomatic-representative-afghanistan-official-2021-11-12/>

mustahkamlabgina qolmay, balki global barqarorlikka erishishda diplomatiyani asosiy vosita sifatida tan olganini ham ko'rsatdi.

Qatar bugungi kunda Yaqin Sharq siyosatining muhim o'yinchisi sifatida nafaqat mintaqaviy voqealarga ta'sir ko'rsata olmoqda, balki o'z manfaatlariga mos yo'nalishda siyosiy jarayonlarni shakllantirish imkoniyatiga ham ega bo'lmoqda. Afg'oniston inqirozini hal etishdagi vositachilik tajribasi Qatar diplomatiyasini "vositachi davlat" maqomidan "mintaqaviy ta'sir markazi" darajasiga ko'tardi. Bu esa kichik davlat uchun beqiyos diplomatik muvaffaqiyat bo'lib, Yaqin Sharq diplomatik tizimida yangi muvozanat modelini yaratdi.

XULOSA

Agar 1990-yillarda "Tolibon 1.0" hukumatining shakllanishida Pokiston hal qiluvchi rol o'ynagan bo'lsa, 2021-yilda "Tolibon 2.0" hokimiyatining tiklanishida bu safar Qatar markaziy o'ringa chiqdi. Dohada "Tolibon" siyosiy vakolatxonasining ochilishi, shuningdek, AQSh va "Tolibon" o'rtasidagi tarixiy bitimning aynan shu yerda imzolanishi, Qatarni yangi bosqichdagi geosiyosiy o'yinlarda muhim vositachiga aylantirdi. Shundan so'ng Doha G'arb davlatlari bilan "Tolibon" o'rtasidagi muzokarlarda doimiy diplomatik kanal sifatida faoliyat yurita boshladi.

Bu jarayon Qatarining vositachilik diplomatiyasida sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatdi. Endilikda Qatar nafaqat muloqotni tashkil etuvchi, balki mintaqaviy siyosiy jarayonlarga bevosita ta'sir o'tkazuvchi subyektga aylandi. Bu holat "Tolibon" omilini o'z ichiga olgan siyosiy jarayonlarda Dohani strategik markazga aylantirdi.

Shunga qaramay, tarixiy jihatdan Saudiya Arabistoni "Tolibon 1.0" hukumatini birinchi bo'lib rasman tan olgan davlatlardan edi. Biroq 1998-yilda Usama bin Ladenni topshirish bo'yicha keskin bahslar, hamda 2001-yil 11-sentyabr terrorchilik hujumlaridan so'ng Saudiya "Tolibon" bilan diplomatik aloqalarni to'liq uzishga majbur bo'ldi. Bu voqealar Saudiya tashqi siyosatida xavfsizlikni birinchi o'ringa qo'yish va xalqaro bosimlarga moslashish zaruratini yuzaga chiqardi.

Natijada, "Tolibon" siyosiy idorasining Ar-Riyodda emas, balki Dohada ochilishi, Saudiya tomonidan aloqalarni tiklashga qaratilgan urinishlarni samarasiz qoldirdi. Bu esa, o'z navbatida, Qatar uchun geosiyosiy imkoniyat eshigini ochdi: u Yaqin Sharqda islomiy harakatlar bilan muloqot olib boruvchi yagona neytral platforma sifatida tanildi. Doha bu mavqeni o'zining yumshoq kuch (soft power) strategiyasi - mediatsiya, gumanitar diplomatiya va xavfsizlikka oid ishonch kanallari orqali mustahkamladi.

Shu tariqa, "Tolibon 2.0" hukumatining o'rnatilishi jarayoni Qatarining tashqi siyosatida vositachilikdan ta'sir markaziga o'tish bosqichini belgilab berdi. Doha bugun Afg'oniston bilan bog'liq siyosiy muloqotlar, gumanitar tashabbuslar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarda hal qiluvchi o'rinni egallamoqda. Buning sababi - Qatar diplomatiyasining asosidagi ikki tamoyilda ko'zga tashlanadi: betaraflik va ishonchli hamkorlik, ular bu davlatni Yaqin Sharq siyosiy arxitekturasining ajralmas qismiga aylantirdi.

Foydalanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. -T.: O'zbekiston, 2018. -B.363-369
2. Bo'ronov S. Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston Geosiyosati. 2021. T.: "EFFECT-D" b-150-165

3. Akmalov Sh. "Tolibon" harakatining Afg'onistondagi siyosiy jarayonlardagi roli. // Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixiy jarayonlari va ularni o'rganishning dolzarb muammolari. Vazirlik miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami (Toshkent, 22.05.2017 y. №10). –T.: TDSHI, 2017. b-93.
4. Акимбеков С.М. История Афганистана. ИМЭП при Фонде Первого Президента. – Астана., 2015. -874 с.
5. Persian Gulf Rivals Competed to Host Taliban, Leaked Emails Show // New York Times, July 31, 2017. <https://www.nytimes.com/2017/07/31/world/middleeast/uae-qatar-taliban-emails.html>
6. Poornima, B. (2022). 'Reluctant or Pragmatic? The GCC's policy towards Taliban-led Afghanistan.' Journal of Asian Security 9 (3): 531-545.
7. Milton, S., Elkahout, G., & Tariq, S. (2023). Qatar's evolving role in conflict mediation. Mediterranean Politics, 1-25.
8. Ardemagni, E. (2021). 'Still a mediator: Qatar's Afghan shot on the international stage.' ISPI, [online] 3 September. Available at: <https://www.ispionline.it/en/publication/still-mediator-qatars-afghan-shot-international-stage-31542>
9. Faiez, R. (2019). 3 Taliban released in effort to free American and Australian. <https://www.pbs.org/newshour/world/3-taliban-released-in-effort-to-free-american-and-australian>
10. Pamuk, H. and Landay, J. (2021). Blinken says Qatar to act as U.S. diplomatic representative in Afghanistan. Retrieved from. <https://www.reuters.com/world/exclusive-qatar-act-us-diplomatic-representative-afghanistan-official-2021-11-12/>

INNOVATIVE
ACADEMY